



Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2017 yil 1 oktyabr holatiga


2017 yilning 1 oktyabr holatiga Xorazm viloyatida jami ro'yhatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni 14234 taga etdi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 401 taga ko'pdir(2,8%).

Shuningdek, faoliyati ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 13703 ta bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,6 % ga ko'paygan hamda ularning soni 357 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 6 ta(1,1 %) ga ko'paygan hamda ularning umumiy soni 531 tani tashkil etgan.


Shu bilan birga 2017 yilning yanvar-sentyabr oylarida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni 1330 taga etib, tugatilganlar soni 336 taga kamligi va ularning umumiy soni 996 ta ekanligi kuzatilmoqda.

Tumanlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda



2017 yil yanvar-sentyabr oylarida 1330 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2016 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 13,5 % ga ko'paygan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Urganch shahrida (383 ta), Xiva tumani (208 ta), Urganch (154 ta), va Xonqa tumanlarida (111 ta) tashkil etilgan. Eng kam Yangibozor (37 ta), hamda Bog'ot (45 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda




Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi sanoat (321 ta), savdo (286 ta), qishloq va o'rmon xo'jaligi (153 ta) va qurilish (126 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (26 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (49 ta) hamda tashish va saqlashda (67 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2017 yil 1 oktyabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 49 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 15 taga yoki 44,1 % ga o'sgan. Bundan tashqari 2017 yil yanvar-sentyabr oylarida 9 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangidan tashkil topgan. Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qo'radigan bo'lsak sanoatda –5 ta, savdoda-1 ta, qurilish hamda qishloq va o'rmon xo'jaligida-1 ta dan tashkil topgan.


Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning tumanlar kesimidagi soni, birlikda



Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2017 yil 1 oktyabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 10939 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2016 yil 1 oktyabr holatiga qaraganda 5,3 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni 2780 tasi (25,4 %) Urganch shahriga, 2293 tasi (21,0 %) Xiva, 1119 tasi (10,2 %) Urganch tumanlari his-salariga to'g'ri keladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 10939 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 3262 tasi (29,8 %) – savdoda, 2142 tasi (19,6 %) - sanoatda, 1388 tasi (12,7 %) - qurilishda, 1028 tasi (9,4 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 744 tasi (6,8 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 526 tasi (4,8 %) - tashish va saqlashda, 225 tasi (2,1 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 210 tasi (1,9 %) - axborot va aloqa sohasida, shuningdek 1414 tasi (12,9 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da




2017 yil yanvar-sentyabr oylarida 1256 kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2016 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 12,5 % ga o'sgan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Urganch shahrida (351 ta), Xiva (201 ta), Urganch tumanlarida (150 ta), tashkil etilgan. Eng kam Yangibozor (34 ta), Bog'ot (43 ta) hamda Shovot (46 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (320 ta), savdoda (286 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (152 ta) va qurilishda (126 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa - axborot va aloqa sohasida (25 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (46 ta), tashish va saqlashda (57 ta) hamda yashash va ovqatlanish (110 ta) tashkil etilgan.

Oilaviy korxonalar soni

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2017 yilning 1 oktyabr holatiga 812 tani tashkil etib, ulardan 782 tasi yoki 96,3 % faoliyat yuritadi.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Xorazm viloyat statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Nashr uchun mas'ul: **D.Kurbanova**
(0362) 224-65-11

Korxonalar va tashkilotlarning yagona
davlat
registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida
tayyorlangan